

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN QURILISH MATERIALLARI VA BUYUMLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Qurilish materiallari va buyumlari fanidan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Qurilish materiallari va buyumlari

1. Qurilish materiallari va buyumlari va buyumlari sohasini rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish tizimi;
2. Qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyalari;
3. Arxitektura ashyoshunosligi bo'yicha tejamkor usullar va innovatsion texnologiyalar.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Qurilish materiallari va buyumlari va buyumlari sohasini rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish tizimi	Qurilish materiallari va buyumlarining umumiy tarixi va kelajak istiqbollari, bino va inshootlar qurilishida qurilish materiallari tizimining asosiy qismlari va turlari, ularning texnik-parametrik xususiyatlari, qurilish buyumlari tizimlarini qurilish jarayonlarining turli sohalarida qo'llash, iqtisodiy mezonlar asosida to'g'ri tizimni tanlash hamda O'zbekistonda qurilish sohasi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni bilish, farqlash va hayotiy-amaliy vaziyatlarda tahlil qila oladi. Zamonaviy qurilish materiallari texnologiyalarini ishlab chiqarishni davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlari: soliq to'lovlaridan ozod qilish, texnologiyalarni joriy etish uchun kreditlar ajratish, xarajatlarni qoplash uchun subsidiyalar berish, bank kreditlarining foiz xarajatlarini qisman qoplash, subsidiyalar ajratish va nazorat qilish tartibini bilish, farqlash va amaliy holatlarda tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.	27,5 %	11
2	Qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyalari	Qurilish materiallari va buyumlarining asosiy tavsifi, bino va inshootlarda ishlatiladigan materiallar turlari hamda ularning texnik parametrlarini, tizim elementlarining joylashuvi va ulanish elementlarini, Binolarni loyihalash jarayonida materiallar tarkibi (materiallar sarfi va iqtisodiy xarajatlarni hisoblash), qurilish materiallari tarkibini ishlab chiqish, texnik xizmat ko'rsatish (qurilish materiallarini ishlab chiqarish va foydalanish) hamda qurilish materiallari va elementlarni to'liq bilish, farqlash va hayotiy-amaliy vaziyatlarda tahlil qila oladi. Qurilish materiallari va buyumlarining tuzilishi va ishlab chiqarish tamoyillarini, materiallarni ishlab chiqarish tizimlari hamda ularning uskunalarini, asosiy elementlarining ish unumdorligi va texnik tasniflarini, qurilish materiallari sarfini belgilash va tizimni loyihalash (xarajatlarni hisoblash, qurilish va ekspluatatsiya qilish) jarayonlarini bilish, farqlash va hayotiy-	52,5 %	21

		amaliy vaziyatlarda tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.		
3	Arxitektura ashyoshunosligi bo'yicha tejamkor usullar va innovatsion texnologiyalar	Qurilish maydoniga materiallarni yetkazish, tanlangan materiallar asosida asosida elementlarni tayyorlash, Qurilish materiallari va buyumlari elementlarni yaxshilab o'rganish hamda xavfsizlik qoidalariga jiddiy rioya qilish, ashyo turlarini farqlash va amaliy vaziyatlarda tahlil qila oladi. Bino va inshootlarni loyihalashda ishlatiladigan qurilish materiallarini ishlab chiqarishda yangi va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish, qurilishning samaradorligini oshirish maqsadida tejamkor usullarni joriy etish va amaliyotda qo'llash, qurilish ashyolarining afzallik va kamchiliklari, ishlab chiqarish texnologiyasi hamda konstruktiv vositalardan foydalanish orqali qurilish materiallarini ishlab chiqarishni samarali tashkil etish tamoyillarini bilish, farqlash va amaliy vaziyatlarda tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.	20 %	8 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	30 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	55 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Samig'ov N. A. "Qurilish materiallari va buyumlari". Darslik. Toshkent. "Cho'lpon". 2013 y.

2. Qosimov E.U., Nizomov T.A. "Arxitektura ashyoshunosligi" Darslik. Toshkent. "Cho'lpon". 2014 y.

3. Samig'ov N. A., Samig'ova M.S. "Qurilish materiallari va buyumlari". Darslik. Toshkent. "Mehnat". 2004 y.

4. Qosimov E.U., Akbarov M.O. "Pardozbop qurilish ashyolari". Toshkent. O'zbekiston. 2005 y.

5. Qosimov E.U. "O'zbekiston qurilish ashyolari". O'quv qo'llanma. Toshkent, 2002 y.